

**TADQIQOTINI O'TKAZISH METODIKASI" MAVZUSIDA YOZGAN
MAQOLASI.**

*O'zbekiston respublikasi Ichki Ishlar Vazirligi Akademiyasi 3-o'quv kursi
329-guruh kursanti Jumageldiyev O'tkirbekning "Niqoblanmagan Sovuq Qurollar*

<https://akadmvd.uz/>

tel: +71 265-22-56

+71 265-17-53

Annotatsiya: Maqolada bugungi kunda sovuq qurollarning vujudga kelish tarixi, bugungi kundagi sovuq qurollarning jinoyatchilikdagi tutgan o'rni, sovuq qurollarning turlari, ularning xususiy va umumiyligini belgilari, bundan tashqari jinoyatchilikning oldini olishda sovuq qurollarni kriminalistik tekshirishning ahamiyati, shuningdek sovuq qurollarni ekspertiza qilishdagi xato va kamchiliklar bayon qilindi. Olingan malumotlarga asoslanib bu muammolarga yechim va xulosalar berildi.

Kalit so'zlar: kriminalistik tekshiruv, sovuq qurollar, jinoyatchilik, kriminalistik texnika, ekspert xulosasi.

Аннотация: В статье описана история появления холодного оружия в наши дни, роль холодного оружия в преступности сегодня, виды холодного оружия, его видовая и общая характеристика, а также значение судебно-медицинской экспертизы холодного оружия в профилактике преступности, а также ошибки и недостатки при экспертизе холодного оружия. На основе полученной информации были даны решения и выводы по данным проблемам.

Ключевые слова: уголовное расследование, холодное оружие, преступление, криминальная техника, заключение эксперта.

Annotation: The article describes the history of the emergence of cold weapons today, the role of cold weapons in crime today, the types of cold weapons, their specific and general characteristics, in addition, the importance of forensic examination of cold weapons in the prevention of crime, as well as errors and shortcomings in the

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

examination of cold weapons. . Based on the received information, solutions and conclusions were given to these problems.

Keywords: criminal investigation, cold weapons, crime, criminal technique, expert opinion.

Kirish:

Mamlakatimizda jinoyatchilikni kamaytirishda, unga qarshi samarali faoliyat olib borishdagi ichki ishlar organlarining vazifalarini belgilash va samarali natijaga ershish uchun ko'plab qonun va normativ huquqiy hujjatlar qabul qilingan. Huddi shunday qonunlarning asosiy maqsadi ekspert-kriminalistika faoliyati tizimini zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan jixozlash shu bilan birga jinoyatchilikning oldini olishdagi ahamiyatini oshirish kabi bir qator vazifa va maqsadlarni o'z ichiga olgan. Yuqoridagi talablarning amalga oshirilishida eng muhim vazifa sodir etilgan jinoyatlarni "Issiq izidan" tez ochish, samarali tergov qilish va aybdorlarni o'z vaqtida jinoiy javobgarlikka tortishdan iboratdir.

Asosiy qism:

«Sovuq quroq» tushunchasi harbiy fanlar va qurolsuzlik tarixida vujudga kelgan va shakllangan. Sovuq qurollar deganda qanday buyumlar nazarda tutiladi? Sovuq qurollarning kriminalistik ta'rifi qanday bo'lishi lozim? – degan savollar ko'plab bahslarga sabab bo'lib kelgan. Soha mutaxassislari sovuq qurollarning o'ziga xos belgilarini turlicha talqin etadilar. Kriminalistika va huquq oldida turgan masalalardan biri tekshirilayotgan obyektning sovuq qurollarga tegishli yoki tegishli emasligini aniqlashdan iborat.

«Sovuq quroq» atamasi tuzilishi, tashqi ko'rinishi va ishlatish usullariga ko'ra turlicha bo'lgan buyumlarni qamrab oladi. Sud-tergov amaliyotidan ma'lum bo'lishicha, biror narsaning sovuq qurollarga taalluqliliginini aniqlashda surishtiruvchi, tergovchi sud yoki ekspertlar faqat deduktiv usul – umumiyyadan xususiyga o'tish usulidan foydalanadilar, ya'ni avval narsaning sovuq qurollarga taalluqliliginini aniqlab olib, so'ng bu narsaning turi va namunasi xususida so'z yuritadilar.

Tekshirilayotgan obyektning sovuq quroq ekanligini nima belgilaydi? Tarixan tirik nishonni tan jarohati yetkazib shikastlantiradigan qurollar ishlatilish usuliga ko'ra

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

quyidagilarga bo‘lingan:

- qo‘l qurollari. Bunda odam-quroq-obyekt o‘zaro ta’sirda bo‘ladi;
- otuvchi qurollar. Muskul kuchi yordamida ishlatiladigan qurollardir (masalan, bumerang, sopqon);
- mexanik qurollar. Kamon, arbalet yoki «pichoq» deb atalgan (bu quroldan tig‘ uchib chiqadi va uzoq masofaga otiladi) maxsus qurollardir;
- pnevmatik qurollar. o‘qotar qurollar;

Rossiyalik olim Y.N.Tixonov bir qancha mualliflar tomonidan berilgan ta’riflarni va belgilarni o‘rganib chiqib, sovuq qurollar quyidagi belgilar yig‘indisiga ega bo‘lishi kerak degan xulosaga keladi:

1. Umumiyl belgi:

- hujum qilishga yoki faol himoyalanishga mo‘ljallanganligi;

2. Maxsus belgilar:

– xavfli tan jarohatlarini bevosita yetkazish uchun maxsus tayyorlanganligi; – bevosita ishlab chiqarishda yoki xo‘jalik-turmushda ishlatish uchun mo‘ljallanmaganligi;

– tuzilishi, shakli, o‘lchami va materiallari tan jarohati yetkazish imkonini berishi;

– jarohat yetkazish uchun inson muskullari kuchining ishlatilishi; – shikastlovchi ta’siriga ko‘ra chopuvchi, kesuvchi, sanchuvchi, chopuvchi-sanchuvchi, chopuvchi-kesuvchi, kesuvchi-sanchuvchi, chopuvchikesuvchi-sanchuvchi, uruvchi-majaqlovchi yoki murakkablashtirilganligi.

Alomatlarning ushbu yig‘indisi eng ma’qul to‘plam hisoblanadi. Yuqorida aytilgan belgilarning barchasini yig‘ib va umumlashtirib sovuq qurollarga quyidagicha ta’rif berish mumkin: Hayot uchun bevosita xavfli bo‘lgan tan jarohati yetkazish maqsadida maxsus tayyorlangan, jarohat yetkazish uchun inson muskullari, siqilgan prujina va tortilgan kamon tori kuchidan foydalaniladigan, bevosita ishlab chiqarishda, xo‘jalik-turmushda va boshqa maxsus ishlarda ishlatish uchun mo‘ljallanmagan, hujum qilish va faol himoyalanish uchun mo‘ljallangan chopuvchi, kesuvchi, sanchuvchi, chopuvchisanchuvchi, chopuvchi-kesuvchi, kesuvchi-

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

sanchuvchi, chopuvchi-kesuvchi-sanchuvchi, uruvchi-majaqlovchi
murakkablashtirilgan narsalarga sovuq quollar deyiladi.

Sovuq quollarni tasniflash tizimi borasida kriminalist-olimlar orasida turli bahs va munozaralar mavjud. Bizning fikrimizcha, Y.N.Tixonovning sovuq quollarni tasniflash tizimi eng to‘liq tizim hisoblanadi. Bu tizimga ko‘ra, sovuq quollar quyidagicha tasniflanadi.

1. Mo‘ljallangan maqsadiga ko‘ra:

- a) jangovar-harbiy quollar. Bunga aholida saqlanayotgan quollar va ichki ishlar idoralari (politsiya)ning quollari kiradi;
- b) ov quollar;
- v) kriminal quollar.

2. Tayyorlash usuliga ko‘ra:

- a) zavodda tayyorlangan;
- b) ustalar tomonidan tayyorlangan;
- v) qo‘lbola usulda tayyorlangan.

3. Tayyorlangan joyiga ko‘ra:

- a) yurtimizda ishlab chiqarilgan quollar;
- b) chet ellarda ishlab chiqarilgan quollar.

4. Umumiy tuzilishiga ko‘ra:

- a) standart, ya’ni biror millatning an’anaviy quollari namunalari va harbiy qo‘sishlarda qabul qilingan tarixiy nusxalariga mos keluvchi quollar;
- b) nostandard, ya’ni tarixiy nusxalarga mos kelmaydigan, odatda jinoyatchilar orasida foydalilaniladigan quollar;
- v) tipik bo‘lmagan quollar. Bunday quollar ikki turga bo‘linadi: sovuq qurolning hamma xususiyatlariga ega bo‘lgan, lekin hech qaysi sovuq qurol turiga o‘xshash bo‘lmagan quollar hamda niqoblangan quollar (masalan, hassa-qilich).

5. Shikastlashiga ko‘ra: Chopuvchi, kesuvchi, sanchuvchi, chopuvchi-sanchuvchi, chopuvchikesuvchi, kesuvchi-sanchuvchi, chopuvchi-kesuvchi-sanchuvchi, uruvchimajaqlovchi.

6. Tuzilishi, ushslash joyi, boshqarish va harakatlantirish usullariga

ko‘ra:

- a) tig‘li (shikastlovchi qismi tig‘li bo‘lgan) qurollar;
- b) tig‘siz (uruvchi-majaqlovchi) qurollar;
- v) murakkablashtirilgan qurollar (kastet-pichoq, tig‘li va tig‘siz quollarning birikmalari);
- g) otiluvchi sovuq qurollar:

Sovuq qurollar ekspertizalari o‘ziga xos xususiyatlariga ega. Masalan, birorta narsani sovuq quollarga tegishli deb aytish uchun, avvalo, bu narsaning sovuq quollarning biror turi, ko‘rinishi, namunasiga tegishliligi aniqlab olinadi, ya’ni narsaning xususiyatlari to‘liq o‘rganiladi. So‘ngra sovuq qurolligi oldindan aniq bo‘lgan boshqa anjomlar bilan yoki sovuq qurol deb hisoblanmagan, ammo sovuq qurolning barcha belgi va xossalariiga ega bo‘lgan narsalar bilan taqqoslab ko‘riladi.

Sovuq qurollar ekspertizasi o‘tkazilganda ekspert-kriminalistik tadqiqotlarning barcha bosqichlari bosib o‘tiladi. Bunda alohida tadqiqotlar, taqqoslash tadqiqotlari, olingan natijalarni baholash hamda yakuniy xulosa chiqarish nazarda tutiladi.

Dastlabki tadqiqotlar bosqichi. Ekspert ekspertiza uchun materiallarni olgandan so‘ng tergov organlarini qiziqtiruvchi savollarni aniqlab oladi. Ekspertiza tayinlash haqidagi qarorda savollar turlicha qo‘yilishi mumkin, ammo ularning asl mazmuni asosan quyidagicha bo‘ladi:

- 1) tadqiqotga taqdim etilgan buyum (obyekt) sovuq qurollar turkumiga taalluqlimi;
- 2) bu buyum sovuq quollarning qanday turiga mansub.

Ekspert birinchi galda daliliy ashyolarning haqiqiyligiga ishonch hosil qilishi kerak. Berilgan obyektlarning haqiqiyligiga salgina shubha tug‘ilsa, ekspertiza tayinlagan shaxsdan qo‘srimcha ma’lumotlar talab qilinishi kerak.

O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 68-moddasiga binoan ekspert o‘zi o‘tkazayotgan ekspertiza predmetiga tegishli jinoiy ish materiallari bilan tanishish huquqiga ega. Bunday materiallarga daliliy ashyoni ko‘zdan kechirish bayonnomasi, daliliy ashyo sifatida qo‘sib qo‘yish haqidagi qaror,

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

ba'zi hollarda esa voqeja joyini ko'zdan kechirish bayonnomasi kiradi.

Alovida tadqiqotlar bosqichi. Ko'zdan kechirishdan maqsad aynan shu buyumning boshqa shunday buyumlar bilan bir xilligini aniqlovchi alomatlarini topishdan iborat. Ko'zdan kechirishda buyumning o'ziga o'xhash buyumlardan farqlovchi alomatlariga ham e'tibor beriladi. Bunday alomatlar jumlasiga: o'lchamlar, rang, yozuvlar ko'rinishidagi alovida xususiyatlar, birorta qismning nuqsonlari kabilar kiradi. Ekspert aniqlagan alovida xususiyatlar nafaqat xulosa matnida, balki ekspertiza xulosasiga ilova qilinadigan suratli jadvallarda yoki fotosuratlar orqali qayd qilingan bo'lishi kerak.

Sovuq qurollar shakli, o'lchamlari, tuzilishi, individual alomatlarini aniqlash uchun ko'zdan kechiriladi. Bunda qurolning uni aynan sovuq qurol sifatida ifodalovchi guruhiy alomatlariga o'xhash buyumlar orasidan ajratib olish imkonini beruvchi individual alomatlariga e'tibor berish kerak. Tadqiqotlarda o'rganilayotgan buyumni kattalashtirib fotosuratga olish kerak. Ayniqsa, undagi alovida alomatlar rusum (marka) belgilari, seriya va nomerlari, yorliqlar, ternalishlar, turli yozuvlar va hokazolar kattalashtirib suratga olinishi kerak. Fotosuratga olishning holatlari va sharoitlari ekspert xulosasida qayd qilinadi, tayyorlangan fotosuratlar esa fotojadvalga yelimlanadi, ularga izoh beriladi va ekspert imzosi hamda muhr bilan tasdiqlanadi.

Sovuq qurollar va ularning qismlarini o'lchashda chizg'ich, o'lchov tasmasi (ruletka), shtangensirkul va transportir kabi o'lchov asboblaridan foydalilanadi. Barcha katta o'lchamdagи qismlar 1 mm gacha, tig'ning, to'sqichning va dastaning qalinligi 0,1 mm gacha aniqlikda o'lchanadi.

Tig'li qurolda quyidagilar o'lchanadi:

- to'g'ri o'q bo'yicha umumiyligi;
- tig'ining umumiyligi;
- tig'ning asosi va o'rtasidagi kengligi;
- tig'ing qalinligi;
- muhra qiya qismining to'g'ri chiziq bo'yicha uzunligi;
- tig' damining uzunligi (tig' tovonidan uning uchigacha o'lchov tasmasi yordamida o'lchanadi);

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

- har bir o‘yiq (ariqcha)ning kengligi va uzunligi;
- tig‘ tovonining uzunligi;
- tig‘ damining qalinligi;
- dastaning uzunligi, uning o‘rta qismidagi qalinligi, shuningdek, uning eng kichik va eng katta kengligi, qalinligi;
- dasta ostki halqasining, poynakning uzunligi va qalinligi;
- tayanch yoki to‘sinqning uzunligi, kengligi va qalinligi.

Agar qurolning tig‘i ikki damli yoki ikki tomonlama o‘tkirlangan, ya’ni dudama bo‘lsa, u holda oriyentirlash dasta, tayanch (chegaralagich)ning shakliga yoki rusum belgilarining joylashishiga qarab amalga oshiriladi.

Odatda, rusum belgilari tig‘ning chap tomonida, tig‘ning uchidan dastaga tomon tushiriladi, o‘ng tomonida bo‘lsa, aksincha, dastadan tig‘ uchiga tomon tushiriladi, tig‘ tovonidagi ko‘ndalang yozuvlar esa qurolning chap tomonida pastdan yuqoriga, o‘ng tomonida esa yuqoridan pastga yo‘nalgan bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Forensic Handwriting Examination and Human Factors: Improving the Practice Through a Systems Approach (*The Report of the Expert Working Group for Human Factors in Handwriting Examination* 2020 Fevral);
2. “Kriminalistika darslik”;
3. “Sud ekspertizasi to’g’risida”gi qonun (1.06.2010 y. 250-sonli O’RQ);
4. “Jinoyat-protsessual kodeksi”.
5. “Sovuq qurollarning kriminalistik tadqiqoti”(T.B.Mamatqulov)

INTERNET SAYTLARI

1. <http://akadmvd.uz> (Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси)
2. [http:// www.academy.uz](http://www.academy.uz) (Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси)